



KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA UY SHAROITIDA INGLIZ TILI O'RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada uy sharoitida oson, tushunarli va qulay usullar orqali ingliz tilini yosh bolalarga o'rgatish metodlari haqida so'z yuritilgan. Nutqni rivojlantirish uchun grammatik qoidalarni yodlash emas, balki o'rgangan, eshitgan, ko'rgan narsalari ularda nutqni shakllanishiga, ya'ni o'z-o'zidan kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: assotsiatsiya, uy ishlari, takrorlash, ota-on, mexanik.

Kirish.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish o'z- o'zini rivojlantirish uchun emas, balki zaruriyat uchun ham o'rganilyapti. Chet tillari nafaqat universitet va maktablarda balki maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ham o'qitilmoqda. Ammo hamma bolalar ham maktabgacha ta'lif maskanlariga bora olmaydilar. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirda til bilish jamiyatdagi o'rningizni tezroq topishingizga yordam bermoqda. Avvallari yosh bolaga til o'rgatish zaruriyatini sezmagan ota-onalar hozirda afsuslanib qolishmoqda. Shuning uchun yoshlikdan o'rgatish bir yutuqqa erishishdir. Til o'rganish yosh va davrlarga ham bog'liq. Psixologlarning ta'kidlashicha, kattalarga nisbatan bolalarda til o'rganish qobiliyati kuchliroq bo'ladi. Ular o'zlariga yuklatilgan vazifani juda tez bajarish va tushunish xusussiyatiga egadirlar. Shuni e'tiborga olish kerakki, bog'cha yoshida bo'lgan bolalar biron narsani tushunib emas, mexanik yodlaydilar. Ko'pchilik ota- onalar farzandlarining yoshlik paytidan ingliz tilini o'rganishini istaydi. To'g'ri, til o'rganish yoshi chegaralanmagan, ammo eng yaxshi davr 4- 5 yoshdan boshlash hisoblanadi. Biz kattalar hozir ham ingliz tilini o'rganayotganimizda har xil grammatik qoidalarni birma-bir yodlab chiqamiz. Bu esa o'g'ir va juda qiyin. Maktabgacha bo'lgan yosh chet til o'rganishni, ya'ni ingliz tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulay paytdir. Chunki bu yoshdagi bolalar juda tirishqoq, bilimga chanqoq, atrofdagi hamma narsani o'rganishga qiziqadigan yoshda bo'ladilar. Ular o'sha diqqat bilan yodlagan qoidalarni darhol o'zlashtiradilar. Ularni majburlash kerak emas, chunki bu ularning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi mumkin.

Asosiy qism. Bola qachon o'rganishni xohlamaydi, qachonki u tushunmaydigan qiyin mavzulardan boshlappingiz, nimani o'rgatishni bilmasligingiz yoxud shunga o'xshash bir qancha sabablar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari: - bolalarda muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish;



-o‘z maqsadlariga erishish uchun bir pog‘ona tepaga chiqish;

-atrofdagi insonlarga o‘z fikrini erkin va to‘liq usulda bayon qilishni o‘rganish; - boshqa mamlakatlar madaniyati, tarixi, hayot tarziga qiziqish uyg‘otish; -bekorchi narsalarga chalg‘imaslik;

- vaqtini tejab, uni ehtiyyotkorlik bilan sarflashni o‘rgatish .

Bola qanday qilib oz vaqt ichida bir tilni o‘zlashtirib olishi hali isbotlanmagan bo‘lsada, lekin xuddi shunday.Bola bir vaqtning o‘zida 2-3 xil tillarni o‘rganish qobiliyatiga ega. Asosiysi, u bilan shug‘ullanish lozim. Farzandiga ingliz tilini o‘rgatmoqchi, ammo nimadan boshlashni bilmayotgan ota-onalar uchun bu maqola darslik bo‘lsa ajab emas. Farzandingizga ingliz tilini o‘rgatish uchun sizning ingliz tili darajangiz a’lo bo‘lishi shart emas. Asosiysi, farzandingizni ruhlantirib, qo‘llabquvvatlay olishingizdir.Albatta, farzandingiz juda tezlik bilan ravon so‘zlashmaydi. Ammo siz harakat qilishdan to‘xtamang, sabrli bo‘ling.

Ingliz tilini uyda o‘rgatishning bir necha usullari, ya’ni metodlari mavjud. Ushbu maqolada ularning eng samaradorlari keltirilgan.

Avvalo, bolani albatta, ingliz tili alifbosi bilan tanishtirishimiz lozim. To‘g‘ri , bu ko‘p vaqt talab qiladi (taxminan kuniga 1-2 soat). Lekin hamma narsani tezroq o‘rganishi uchun bola alifbo bilan tanish bo‘lishi lozim. Buning uchun siz har kuni farzandingizga alifbo uchun alohida vaqt ajratishingiz lozim. Buni qanday o‘rgatasiz? Daftarga avval katta harfni, so‘ngra kichik harflarni yozib, o‘rgatishni boshlaysiz. Bir harfga kamida 2 kun sarflaysiz (bir kun yozilishiga, bir kun talaffuziga). Bu degani farzandingiz taxminan 2 oyda alifboni tugatadi. Bundan tashqari alifboni shunchaki yodlashdan ko‘ra, qo‘sish qilib kuylash samaraliroq ekanligini ta’kidlash lozim.

Bolangizni so‘z boyligini o‘stirish til o‘rgatayotishni ikkinchi eng muhim masalasidir. Farzandingizga o‘rgatayotgan so‘zlariningizni ikkiga bo‘lib o‘rgating. Doimiy, ya’ni kundalik faol so‘zlar va zahira, ya’ni unchalik ishlatilmaydigan so‘zlar.

So‘zlarni tez va oson xotirada saqlash va ishlatishning samarali usuli bu assotsiatsiya orqali yod olishdir.

Ingliz tilini uyda o‘rgatishimiz uchun bizga birinchi navbatda assotsiatsiya, biz uchun xotirada tez va oson qoladigan ob‘yektlar bilan bog ‘lash yordam beradi. So‘zlani yodlatish davomida biron uy ishlariga ulab ketish, amalda bajarish, sinash bola uchun qiyinchiliksiz tabiiy o‘zlashtirishga aylanadi. Masalan: farzandingizga dasturxonga piyola olib borib qo‘yishini so‘rang va uyda necha kishi mavjudligini ingliz tilida sanashini iltimos qiling yoki birga sanang. Uydagi jihozlarni barchasini ingliz tilida aytинг. Masalan: qoshiq bilan ye demoqchisiz, bunda asosiy so‘z -



qoshiq, siz shuni - “spoon bilan ye” desangiz uning lug‘atidagi so‘zlar yana bittaga ko‘payadi.

Uchinchi samarali usul bu kundalik voqealar orqali o‘rgatish.

Bu metodikada atrofidagi barcha narsalardan foydalanish mumkin. Masalan; “kecha sen ‘blue socks’ingni kiyding, bugun esa’white socks’ingni kiyasan”. Yoki bola bilan xonasini yig‘ishtirayotgan paytingizda uning o‘yinchoqlarini ingliz tilida nomlash orqali. Masalan: kel ‘teddy bear’ingni tepaga olib qo‘yamiz , ‘car’laringni yig‘ib qo‘y deyish mumkin. Ko‘zga ko‘rinadigan narsalardan foydalanish. Masalan: eshik [door], stol [table], ruchka [pen] kabi.

Navbatdagi usul bu kitoblar orqali o‘rgatish

Yosh bolalar rasmi,yorqin rangli kitoblarga qiziqaadi. Siz rasmda tasvirlangan narsani ko‘rsatgan holda, o‘sha narsani nimaligini,rangini so‘rashingiz mumkin. Masalan: Samolyot qanaqa rangda edi? Itning oldidagi nima edi ?

Bolalar uchun eng qiziq usul bu *multfilmlar ko‘rsatish orqali* chet tilini o‘rgatish.

Multfilm har xil hayvonlar ishtirokida, har xil qo‘sishqa boy bo‘lsa yana yaxshi. Bolada eshitib tushunish qobiliyati yaxshilanadi. Hayvonlar nomini eslab qolishi ham osonlashadi. Bundan kelib chiqadiki, har bitta multfilmdan bola kamida 6 ta so‘z eslab qoladi. Bu degani haftada 3 kun 30 daqiqadan multfilm tomosha qilsa, 1 haftada bolaning so‘z boyligi 18 ta so‘zga ko‘payadi.

Hikoya yoki ertak o‘qib berish sinalgan va mashhur usullardan biri. Hikoyani mos ohang va ovozda o‘qib eshittiring. Hikoya tugagandan so‘ng bola bilan suhbatlapping. Eshitish davomida nimaga ko‘proq ahamiyat berdi, qaysi so‘zlarni tushunmadi va qaysilarini eslab qoldi. Eslatib o‘tamiz, hikoya bola biladigan so‘zlardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan va bir xillikdan zerikuvchan bo‘lishadi. Shuning uchun ularga har safar turli xil yangiliklardan foydalanib faoliyat olib borish foydali bo‘ladi. Agar ularga bir xilda dars o‘tilsa, ular metodikani eslab qolishadi va tayyorlanishadi. Bu esa ularni intilishdan to‘xtatadi.

Farzandingizni nimani yoqtirishini sizdan yaxshi biladigan odam bo‘lmasa kerak. Ularni til o‘rganishdagi har bir muvaffaqiyatini rag‘batlantirish qiziqishni oshirishning yana bir samarali usuli hisoblanadi.

Bolarga birinchi navbatda qaysi mavzulardagi so‘zlarni o‘qitish kerak? - raqamlar; -o‘yinchoqlar; -kiyimlar;

-hayvonlar; -tana a’zolari;

-ranglar; -ovqatlar.



Farzandingizni so‘z boyligi oshgan sari so‘zlarni murakkablashtirib boraverasiz. Asosiysi, farzandingizni e’tiborini torta bilishingizdadir. Shuni yodda tutishimiz kerakki, bolaning qiziqishidan kelib chiqqan holda o‘rgatish lozim. Tepada ta’kidlab o‘tganimizdek, kitobga qiziqsa, kitob orqali, multfilmga qiziqsa, u orqali o‘rgatish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil o‘qitishingizni afzal tomoni shundaki, farzandingiz ko‘proq narsani o‘rganishi mumkin, undan tashqari farzandingiz kamchiligini, nimani yoqtirish va yoqtirmasligini siz yaxshi bilasiz. Bu esa uni tezroq o‘rganishiga yordam beradi. Bolangiz bog‘chada tanlay olmaydi, uning o‘rniga o‘qituvchi qaror qiladi, bu esa uning qiziqishini so‘ndiradi. Bundan kelib chiqadiki, farzandingizga befarq bo‘lmang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eraliyeva Zamira. (2023). BOLALAR KITO BXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(15), 287–295. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1967>
2. Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konzeptining Ifodalanishi. Miasto Przyszlosci, 40, 329–334. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1820>
3. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyayeva Muqaddassxon (2022). MAK TABGACHA TA’LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.
4. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковью» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.
5. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAK TABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPI SHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
6. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo‘rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 184–186. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866>



7. Юлдашева, Д. М., & Эралиева, З. Р. (2023). “БОЛАЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. *Research Focus*, 2(2), 226-228.
8. Kalendarova Z.K. Maktabgacha yoshdagи bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish.“Maktabgacha ta’lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar”. – Toshkent, 2021. 27-may. B. – 104 -106 b.
9. Ramazonovich, K. S. (2023). BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY VOSITA SIFATIDA HARAKATLI O ‘YINLARNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(2), 124-128.
10. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BO’LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 41-47.
11. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 48-52.
12. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B2), 282-286.
13. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(1), 3-9.
14. Erkinjonova, G. (2023). ETNIK-MADANIY TARBIY-BOLA SAXSINI KAMOL TOPTIRUVCHI VOSITA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(24), 383-386.
15. Erkinjonova, G. F. Q. (2021). BOLALAR KITOBOXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ORNI. *Scientific progress*, 2(2), 339-343.
16. Uljayevna, O. R. F. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 654-659.
17. Qizi, J. M. M. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B2), 77-82.
18. Muratovich, M. F., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
19. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2024). JSTGA A’ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA’LIMGA IJOBIY TA’SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.